



O'QITUVCHI-PEDAGOGLARNING TARBIYALANUVCHILAR BILAN PEDAGOGIK MUOMALA MADANIYATI

Aknazarova Zulfiya Shavkat qizi

UrDU pedagogika fakulteti boshlang'ich

ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7543624>

ARTICLE INFO

Received: 06th January 2023

Accepted: 15th January 2023

Online: 17th January 2023

KEY WORDS

Pedagogik muloqot, muomala madaniyati, so'z, nutq, notiqlik qobiliyati, muloqot obyekt.

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'qituvchilarning muomala madaniyati, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi nutqida hamda muomalasida aynan nimalarga e'tibor berishi kerkligi haqida ma'lumot nerib o'tiladi. Shuningdek, o'qituvchi nutqida uchraydigan ayrim kamchiliklar va nuqsonlar haqida ham ma'lumotlar berilib o'tiladi. Chunki muomala madaniyati tarbiyalanuvchilar bilan aloqaga kirishishning yagona usuli hisoblanadi va ta'lim jarayonida ko'p masalalar muomala va nutq madaniyatoga bog'liqdir

Ma'lumki, hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayoni eng ko'p e'tibor qaratilib turgan hamda rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratilib turgan soha hisoblanadi. Chunki kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida ta'lim sohasi jamiyat rivojlanishida muhim o'rin tutgan va hozir ham ta'lim-tarbiyaning ahamiyati ortsa, ortyapti, lekin aslo kamaygani yo'q. Chindan ham, mamlakat kelajagi uchun o'z hissasini qo'sha oladigan chinakam barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularni voyaga yetkazish kishilik jamiyatining azaliy maqsadi hamda vazifasi hisoblanadi.

Barkamol yoshlarni tarbiyalashda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan sohalar, vositalar talaygina. Ayni maqolada esa shularning biri bo'lmish muomala va muloqot madaniyati bilan tanishamiz. O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyatini shakllantirish muammosi kishilik jamiyatining ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqqan holda hal qilinadi. Shu boisdan hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da kasb tanlash motivlari, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy layoqat va kasbiy mahorat bilan cheklanib qolmaslikni, balki bo'lg'usi pedagog kadrlar shaxsiy faoliyatida kasbiy madaniyatni tarkib toptirish mutlaqo zarur ekanligi ta'kidlanadi. Respublikamizda o'qituvchilik kasbining o'ziga xos etnopsixologik fazilatlar, xislatlari, qobiliyatlari, ish uslublari, pedagogik mahorat sirlarini egallash usullari, shaxslararo muloqot madaniyati yuzasidan turli davrlarda har xil ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Muloqot madaniyatining tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy sifatleri bilan belgilanishini ta'kidlab o'tish lozim.[1]

O'quvchi-talabalar jamoasi bilan muomala ko'pincha suhbat, ma'ruza, axborot va hokazolar shaklida bo'ladi. Birinchi navbatda, suhbatni qanday boshlash, qanday qilib o'qituvchining gaplariga o'quvchi-talabalarning diqqatini tortish, ularni qanday qilib mavzuga



qiziqtirish o'qituvchining muomala madaniyatiga bog'liq jarayon hisoblanadi. O'quvchilar bilan muloqot chog'ida o'qituvchi uchun eng zarur bo'lgan xususiyat bu xotirjamlik hamda diqqatni jamlaganlik hisoblanadi. Muomala jarayonida o'qituvchida hayajon, qo'rquv yoki darsga nizbatan loqaydlik bo'lsa, bular o'quvchilarga yaqqol seziladi va ularda o'qituvchiga nisbatan hurmat kamayadi.

Muomala bilish jarayonidir. Bilish o'quvchi-talabalarning miqdorlar tizimini o'zlashtirish va hosil qilish tarzida namoyon bo'ladi. U o'quvchi-talabalarga olamni va unda o'zini tushunish imkonini beradi. Bilish faoliyati va uning jarayonidagi muomala o'quvchi-talabaarga o'zlarining bilishga doir qiziqishlari va mayllariga to'garak mashg'ulotlarida, ilmiy jamiyatlarda, olimpiada va tanlovlarda ro'yobga chiqarish imkonini beradi. Muomala har qanday axborotni idrok etishga va ularning o'quvchi-talabalar tomonidan talqin qilinishiga ta'sir ko'rsatadi.[2]

O'qituvchining kasbiy faoliyatida yuksak pedagogik va psixologik natijalarga erishishi uchun, ko'p yillik nazariy va amaliy tajribalar asosida tadqiqotchi olimlar tomonidan taklif etilgan muloqotning quyidagi yo'nalishlaridab foydalanish tavsiya etiladi:

1. Prognostik yo'nalish. O'qituvchining muloqotga bevosita tayyorgarlik jarayonida o'quvchilar bilan bo'lajak har qanday muloqot turini modellashtirish.
2. Muloqotning boshlang'ich yo'nalishi. O'quvchilar bilan dastlabki muloqotni tashkil etish jarayonidayoq bevosita o'zaro ta'sir metodlaridan foydalanib, tashabbuskorlikni qo'lga olish.
3. Muloqotning uchinchi yo'nalishi. Tobora takomillashib, rivojlanib borayotgan pedagogik faoliyatda muloqotning turli texnologik shakllaridan unumli foydalanish va uni boshqarish.
4. Muloqotning to'rtinchi yo'nalishi. Keyingi pedagogik faoliyat uchun olib boriladigan muloqot tizimini modellashtirish va muloqotning amalga oshirilgan tizimini doimiy tahlil qilib borish.[3]

Jonli muloqot – o'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan, har qanday ta'lim tarbiyaviy tadbir mohiyatini og'zaki so'z bilan o'quvchilarga yetkazadigan, ziddiyatli jarayonlardan olib chiqish qudratiga ega bo'lgan faoliyatdir. O'qituvchi pedagogik mahoratida mujassamlashgan nutqning jozibadorligi, bilim saviyasining va tafakkurining kengligi, o'tkir dunyoqarashi, ma'naviy madaniyat darajasi, pedagogik qobiliyati, ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarning mutanosibligi har qanday dars va darsdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy tadbirning muvaffaqiyatini ta'minlovchi hamda o'qituvchi jonli muloqotini tashkil etuvchi omillardir.

Ijtimoiy-psixologik tekshiruvchilar pedagogik muloqot malakasida 2 ta asosiy kommunikativ ta'sir etish turlarini ajratadilar: shonch hosil qilish va ishontirish. Pedagogning har bir harakati tarbiyalanuvchining munosabatlari, fikrlari, hissiyotlari, faoliyatlarini shakllantirishga, ya'ni ularning psixikasi va xulqiga har tomonlama ta'sir etishga qaratiladi. Lekin ishonch hosil qilish va ishontirishning psixologik jarayoni turlichadir. Ta'sir etishning har bir yo'li o'z stepsifik xarakteriga ega. Ishonch hosil qilish yangi qarashlar, munosabatlarni shakllantiradi, noto'g'ri qarashlar va munosabatlarni o'zgartiradi.

Tarbiyachining o'zi muomala jarayonida me'yorlarga hamda qoidalarga amal qilishi zarur. Agar o'qituvchi notiq bo'lsa, yanayam yaxshi. Bu ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ammo bir gapi ikkinchi gapiga to'g'ri kelmaydigan darajada balandparvoz gaplarni gapirsa va



o'quvchilar tushunishi ushun qiyin bo'lgan atamalarni qo'llash orqali o'zini ko'rsatishga harakat qilsa, bu bilan ta'limning sifatiga putur yetadi va o'qituvchi o'quvchilar ldidagi hurmatini ham yo'qotadi.

Shuning uchun ham o'qituvchi oddiy til bilan yuqori mahoratda mavzuni o'quvchilarga tushuntirib berishi lozim. Darsning boshidan oxirigacha, mavzuni bayon qilayotganda bir xil vaznda emas, har xil tonda gapirishi kerak. Yana, qanday vaziyatda o'quvchilarga qanday muomala qilishning ustasi bo'lishi lozim. Chunki darsda o'zini yomon hiz qilayotgan bolaga qanchalik mohirlik bilan mavzuni tushuntirsang ham, buning foydasi yo'q. Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi-pedagoglar muomala madaniyati, muloqot texnikasining barcha sir-asrorlarini puxta egallagan bo'lishi lozim.

References:

1. B. S. Abdullayeva. Umumiy pedagogika (Pedagogik mahorat). Darslik. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2021.
2. N. Atayeva, M. Salayeva, S. Hasanov. Umumiy pedagogika (Pedagogika nazariyasi va amaliyoti asoslari). O'quv qo'llanma. II kitob. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2015.
3. R. A. Mavlonova, N. H. Rahmonqulova, K. O. Matnazarova, M. K. Shirinov, S. Hafizov. Umumiy pedagogika. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2018.